2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK: 159.922.4:159.947.5:331.105.44

KASABA UYUSHMALARI XODIMLARIDA TASHABBUSKORLIK VA KONFORMLIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-DEMOGRAFIK OMILLAR KESIMIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Sharipov Hayotjon Safarovich,
International School of Finance Technology and Science instituti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlikning strukturaviy komponentlari va konformlik darajasining ijtimoiy-demografik omillar - jins, yosh, oilaviy holat va ish staji kesimida namoyon bo'lish xususiyatlari empirik tadqiq etilgan. Tadqiqotda Sirdaryo, Andijon va Buxoro viloyatlaridagi kasaba uyushmalari bo'limlarida faoliyat yurituvchi 211 nafar respondent (121 erkak, 90 ayol) ishtirok etib, I.A.Krupnovning "Tashabbuskorlik so'rovnomasi" va S.V.Klauchek hamda V.V.Delarning "Konformlik" testi qo'llanildi. Mann–Uitni U-mezoni, Kruskal–Uollis H-mezoni va Spirmenning rang korrelyatsiyasi yordamida o'tkazilgan tahlil natijasida tashabbuskorlik komponentlarining ijtimoiy-demografik omillarga ko'ra differensiallashish qonuniyatlari aniqlandi. Xususan, kognitiv komponent 36-55 yoshdagi, emotsional komponent esa 19-35 yoshdagi respondentlarda yuqoriroq; refleksiv komponent oila qurmaganlarda eng yuqori; konformlik esa ish staji ortishi bilan pasayib boradi. Korrelyatsion tahlil tashabbuskorlikning dinamik, emotsional va regulyator komponentlari konformlik bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatdi. Olingan natijalar konformlik va tashabbuskorlikni qarama-qarshi emas, balki o'zaro to'ldiruvchi psixologik resurslar sifatida talqin qilish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: tashabbuskorlik, konformlik, jins omili, yosh, ish staji, kasaba uyushmalari xodimlari, strukturaviy komponentlar, Mann-Uitni U-mezoni, korrelyatsion tahlil.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ ИНИЦИАТИВНОСТИ И КОНФОРМНОСТИ У СОТРУДНИКОВ ПРОФСОЮЗОВ В РАЗРЕЗЕ СОЦИАЛЬНО- ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

Аннотация. В статье эмпирически исследованы особенности проявления структурных компонентов инициативности и уровня конформности у работников профсоюзных организаций в разрезе социально-демографических факторов - пола, возраста, семейного положения и стажа

работы. В исследовании приняли участие 211 респондентов (121 мужчина, 90 женщин), работающих в профсоюзных подразделениях Сырдарьинской, Андижанской и Бухарской областей; применены «Опросник инициативности» И.А.Крупнова и тест «Конформность» С.В.Клаучек и В.В.Делара. Анализ с использованием критерия U Манна-Уитни, критерия H Краскела-Уоллиса и ранговой корреляции Спирмена выявил закономерности дифференциации компонентов инициативности. В частности, когнитивный компонент выше у респондентов 36-55 лет, эмоциональный - у 19-35 лет; рефлексивный компонент наиболее выражен у не состоящих в браке; конформность снижается с ростом стажа. Корреляционный анализ показал положительную связь динамического, эмоционального и регуляторного компонентов с конформностью. Результаты обосновывают необходимость трактовки конформности и инициативности как взаимодополняющих, а не противоположных психологических ресурсов.

Ключевые слова: инициативность, конформность, гендерный фактор, возраст, стаж работы, работники профсоюзных организаций, структурные компоненты, критерий U Манна-Уитни, корреляционный анализ.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF INITIATIVE AND CONFORMITY CHARACTERISTICS AMONG TRADE UNION EMPLOYEES IN THE CONTEXT OF SOCIO-DEMOGRAPHIC FACTORS

Abstract. The article empirically examines the manifestation of the structural components of initiative and the level of conformity among trade union employees across socio-demographic factors - gender, age, marital status and length of service. The study involved 211 respondents (121 men, 90 women) working in trade union units of the Syrdarya, Andijan and Bukhara regions, using I.A.Krupnov's "Initiative Questionnaire" and the "Conformity" test by S.V.Klauchek and V.V.Delar. Analysis using the Mann-Whitney U-test, the Kruskal-Wallis H-test and Spearman's rank correlation revealed patterns of differentiation among the components of initiative. In particular, the cognitive component is higher among respondents aged 36-55 and the emotional component among those aged 19-35; the reflexive component is most pronounced among unmarried respondents; conformity declines as length of service increases. Correlation analysis showed a positive association of the dynamic, emotional and regulatory components with conformity. The findings substantiate the need to interpret conformity and initiative as complementary rather than opposing psychological resources.

Key words: initiative, conformity, gender factor, age, length of service, trade union employees, structural components, Mann-Whitney U-test, correlation analysis.

Kasaba uyushmasi xodimining kasbiy faoliyati mohiyatan ikki tomonlama ijtimoiy-psixologik talabni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, u tashkilotning tashkiliy madaniyati, ichki tartib-qoidalari, guruhiy me'yorlari va boshqaruv strukturasiga moslashishi zarur, bu esa muayyan darajadagi konformlikni talab qiladi. Ikkinchi tomondan, xodim mehnat jamoasi manfaatlarini himoya qilish, mavjud muammolarni ko'tarib chiqish, yangi tashabbuslarni ilgari surish va qaror uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishi kerak, bu esa tashabbuskorlik va mustaqillik salohiyatini talab etadi.

Ushbu ikki qutb o'rtasidagi muvozanat kasaba uyushmasi xodimining psixologik portretini belgilovchi asosiy tavsif hisoblanadi. Amaliyotda ushbu muvozanatning buzilishi ikki xil salbiy natijaga olib keladi: konformlikning haddan tashqari yuqoriligi xodimni adolatsizlikka qarshi ovoz ko'tarmaydigan, guruh fikriga ko'r-ko'rona ergashadigan ijrochiga aylantiradi; uning haddan tashqari pastligi esa xodimning tashabbuslarini jamoaviy qo'llab-quvvatlashdan mahrum etib, ularni izolyatsiyalangan individual harakatga aylantiradi. Aynan shu sababli mazkur ikki xususiyatning o'zaro nisbati va uni belgilovchi ijtimoiy-demografik omillarni empirik aniqlash amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda tashabbuskorlik va konformlik o'rtasidagi munosabat masalasi bahsli bo'lib qolmoqda. Bir qator tadqiqotlarda ular teskari korrelyatsiyada bo'lishi mumkinligi, ya'ni yuqori konformlik darajasi ko'pincha tashabbuskorlikning pasayishi bilan birga kelishi ta'kidlanadi: guruh me'yorlariga qattiq bog'lanish shaxsning mustaqil g'oya ilgari surishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Biroq bu bog'liqlik universal emas, chunki muayyan - "qulay" deb ataluvchi - konformlik darajasi jamoaviy ish samaradorligi uchun eng maqbul omil sanaladi. Mazkur qarama-qarshilikni kasaba uyushmalari kabi jamoaviy manfaatni ifodalovchi tashkilot misolida empirik tekshirish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlikning strukturaviy komponentlari va konformlik darajasining jins, yosh, oilaviy holat, ish staji hamda hududiy mansublik bo'yicha namoyon bo'lish xususiyatlarini qiyosiy jihatdan empirik tahlil qilish va ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni aniqlashdan iborat.

Tashabbuskorlik muammosi psixologiya fanida shaxs faolligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida o'rganilgan. I.A.Krupnovning tizimli-funksional yondashuvida tashabbuskorlik shaxsning motivatsion-mazmuniy va instrumental-dinamik xususiyatlarini birlashtiruvchi yaxlit tizimli sifat sifatida talqin etilib, uning maqsadli, motivatsion, kognitiv, produktiv, dinamik, emotsional, regulyator va refleksiv komponentlari ajratiladi. Ushbu modelning diagnostik afzalligi shundaki, u tashabbuskorlikni yagona umumlashgan ko'rsatkichga emas, balki o'zaro bog'liq komponentlar tizimiga ajratadi va shu orqali shaxsning tashabbus profili haqida differensial ma'lumot olish imkonini beradi.

Xorijiy tadqiqotlarda M.Frese va D.Fay tomonidan ishlab chiqilgan "shaxsiy tashabbus" konsepsiyasi tashabbuskor xulq-atvorni o‘z-o‘zidan boshlanuvchanlik, proaktivlik va qat'iyat belgilari orqali tavsiflaydi. J.B.Rotterning nazorat lokusi nazariyasi hamda A.Banduraning o‘z-o‘ziga ishonch konsepsiyasi tashabbusning kognitiv-motivatsion zaminini ochib beradi.

Konformlik muammosi S.E.Aschning klassik eksperimentlaridan boshlab tizimli o‘rganilgan bo‘lib, ularda guruh bosimining individual mulohazani o‘zgartirishdagi kuchi ko‘rsatilgan. Keyingi tadqiqotlarda konformlik faqat salbiy hodisa emas, balki guruh yaxlitligi va ijtimoiy moslashuvni ta'minlovchi funksional mexanizm sifatida ham talqin qilingan. S.V.Klauchek va V.V.Delarning metodikasi konformlikni shaxsning haqiqiy yoki tasavvuridagi guruh bosimi ta'sirida o‘z xatti-harakati, fikri hamda bahosini guruh me'yorlariga moslashtirishi sifatida operatsionallashtiradi.

Jins omilining yetakchilik va tashabbuskorlikka ta'siri masalasida A.H.Eagly va S.J.Karauning rol muvofiqligi (role congruity) nazariyasi keng e'tirof etilgan: unga ko‘ra, ayol yetakchilarga nisbatan salbiy munosabat ayollik gender roli bilan yetakchilik roli o‘rtasidagi ijtimoiy kutilmalar nomuvofiqligidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, mehnat jamoalarida gender tafovutlarining sezilarli darajada kamayib borayotgani, kasbiy talab va tashkiliy me'yorlar gender omilidan ustun kelishi haqidagi ma'lumotlar ham to‘planmoqda.

Mahalliy tadqiqotlarda (E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, D.G.Muxamedova va boshqalar) shaxs faolligi, kasbiy motivatsiya va jamoadagi ijtimoiy-psixologik jarayonlar o‘rganilgan bo‘lsa-da, kasaba uyushmalari xodimlari misolida tashabbuskorlik va konformlikning ijtimoiy-demografik omillar kesimidagi differensiatsiyasi maxsus tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada yoritilmagan.

Tadqiqotda Sirdaryo, Andijon va Buxoro viloyatlaridagi kasaba uyushmalari bo‘limlarida faoliyat yurituvchi jami 211 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlarning 121 nafari (57,3%) erkaklar, 90 nafari (42,7%) ayollar; 110 nafari 19-35 yosh, 101 nafari 36-55 yosh oralig‘ida; oilaviy holati bo‘yicha oilali, oila qurmagan va ajrashgan guruhlarga ajratildi. Tanlanma tashkil etishda respondentlarning yoshi, mehnat faoliyati va oilaviy ahvoli hisobga olindi.

Ma'lumotlar to‘plash uchun I.A.Krupnovning "Tashabbuskorlik so‘rovnomasi" (tashabbuskorlikning maqsadli, motivatsion, kognitiv, produktiv, dinamik, emotsional, regulyator va refleksiv komponentlarini aniqlash uchun) hamda S.V.Klauchek va V.V.Delarning "Konformlik" testi qo‘llanildi. Tadqiqot ishtirokchilarga o‘rganish maqsadi tushuntirilib, ishtirok ixtiyoriy asosda va anonimlik sharti bilan tashkil etildi.

Olingan natijalarning statistik ishonchliligini aniqlash uchun ikki mustaqil guruhni qiyoslashda parametrik bo‘lmagan Mann-Uitni U-mezoni, uch va undan ortiq guruhni qiyoslashda Kruskal-Uollis H-mezoni, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda esa Spirmenning rang korrelyatsiyasi koeffitsiyentidan

foydalanildi. Matematik-statistik ishlov berish SPSS Statistics dasturida amalga oshirildi. Parametrik bo‘lmagan mezonlarni tanlash ko‘rsatkichlar taqsimotining normal taqsimotdan farqlanishi hamda o‘lchov shkalasining tartib xususiyatiga ega ekanligi bilan asoslanadi.

Dastlab tashabbuskorlik komponentlari va konformlik ko‘rsatkichlarining jins bo‘yicha tafovutlari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Tashabbuskorlik komponentlari va konformlik ko‘rsatkichlarining jins bo‘yicha tafovutlari (n=211, Mann–Uitni U-mezoni)

Komponent	Erkaklar (o‘rtacha rang)	Ayollar (o‘rtacha rang)	U	p
Maqsadli komponent	117,93	89,97	4002	0,000**
Motivatsion komponent	96,78	118,39	4330	0,011*
Kognitiv komponent	97,35	117,63	4398	0,017*
Produktiv komponent	97,42	117,53	4407,5	0,018*
Dinamik komponent	96,53	118,73	4299	0,009**
Emotsional komponent	116,43	91,97	4183	0,004**
Regulyator komponent	95,24	120,46	4143	0,003**
Refleksiv komponent	115,61	93,07	4282	0,008**
Konformlilik	96,53	118,73	4299	0,009**

*Izoh: * $p<0,05$; ** $p<0,01$.*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘rganilgan komponentlar bo‘yicha statistik ahamiyatli tafovutlar aniqlangan. Maqsadli komponent bo‘yicha erkak respondentlarning o‘rtacha rangi 117,93 ni, ayollarniki esa 89,97 ni tashkil etib, farq yuqori statistik ishonchlilik darajasida namoyon bo‘lgan ($U=4002$; $p<0,01$). Bu erkak xodimlarda tashabbusning maqsadga yo‘naltirilgan tomoni - aniq natijani belgilash, muammoni hal etishga yo‘naltirilgan vazifalarni ajratish - nisbatan yaqqolroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Emotsional ($U=4183$; $p<0,01$) va refleksiv ($U=4282$; $p<0,01$) komponentlar bo‘yicha ham erkaklar foydasiga ishonchli farq qayd etilgan.

Ayollarda esa motivatsion (U=4330; p<0,05), kognitiv (U=4398; p<0,05), produktiv (U=4407,5; p<0,05), dinamik (U=4299; p<0,01) va regulyator (U=4143; p<0,01) komponentlar, shuningdek konformlilik (U=4299; p<0,01) darajasi statistik ishonchli yuqori bo‘lgan. Olingan natijalar jins omili tashabbuskorlikning faqat umumiy darajasiga emas, balki uning maqsadni belgilash, motivatsiya, vaziyatni anglash, natijadorlik, faollik dinamikasi, emotsional kechinmalar, o‘zini o‘zi boshqarish va refleksiv baholash kabi ichki mexanizmlariga ham differensial tarzda aloqador ekanligini ko‘rsatadi.

Navbatdagi bosqichda tashabbuskorlik va konformlik ko‘rsatkichlarining yosh bo‘yicha tafovutlari o‘rganildi (2-jadval).

2-jadval

Tashabbuskorlik va konformlik ko‘rsatkichlarining yosh bo‘yicha tafovutlari (n=211)

Komponent	19-35 yosh (n=110)	36-55 yosh (n=101)	U	p
Maqsadli komponent	64,07	57,86	1577,5	0,333
Motivatsion komponent	60,78	60,29	1745	0,939
Kognitiv komponent	48,09	73,76	1593	0,036*
Produktiv komponent	58,58	61,92	1661,5	0,602
Dinamik komponent	56,39	63,54	1550	0,265
Emotsional komponent	71,62	48,99	1682,5	0,042*
Regulyator komponent	56,54	63,43	1557,5	0,283
Refleksiv komponent	60,71	60,35	1749	0,956
Konformlilik	57,54	62,69	1608,5	0,412

*Izoh: * p<0,05.*

Kognitiv komponent 36-55 yoshdagi kasaba uyushmasi xodimlarida yuqori natija ko‘rsatdi (U=1593; p<0,05). Mazkur natija xodimlarda shaxsiy va ijtimoiy tajriba ortishi bilan tafakkur va idrokning barqarorlashishi, tashabbusni anglash, tahlil qilish va rejalashtirish qobiliyatining kuchayishi bilan izohlanadi. 19-35 yoshda tashabbus ko‘rsatish yoki guruh fikriga moslashish ko‘pincha chuqur kognitiv tahlilga emas, balki impulsiv turtkilarga asoslanadi, chunki bu yoshda

vaziyatni har tomonlama baholash uchun zarur hayotiy sxemalar va ijtimoiy intellekt hali to‘liq shakllanib ulgurmagan bo‘ladi. Yosh ortishi bilan axborotni qayta ishlash tezligi biroz pasaysa-da, tajriba hisobiga to‘plangan bilim va tahlil qobiliyati eng yuqori nuqtaga chiqadi.

Emotsional komponent bo‘yicha, aksincha, 19-35 yoshdagi respondentlarda ahamiyatli farq kuzatildi (U=1682,5; p<0,05). Bu yosh oralig‘ida hissiy sezgirlik va o‘z maqomini anglash ehtiyoji kuchli bo‘lib, shaxsda ijtimoiy jihatdan o‘z o‘rnini topish, hissiy jihatdan o‘zini boshqara olish ko‘nikmalari shakllanadi. Kasbiy o‘sishga intilish, o‘zini namoyon qilish ehtiyoji va yangilikka ochiqlik tashabbuskorlikning emotsional jihatini kuchaytiradi.

Qolgan komponentlar hamda konformlilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yosh guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar kuzatilmadi. Bu tashabbuskorlikning mazkur komponentlari respondentlarning yoshidan qat’i nazar deyarli bir xil namoyon bo‘lishidan dalolat beradi.

Oilaviy holat omili bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Tashabbuskorlik va konformlik ko‘rsatkichlarining oilaviy holat bo‘yicha tafovutlari (n=211, Kruskal–Uollis H-mezoni)

Komponent	Oilali (n=93)	Oila qurmagan (n=62)	Ajrashgan (n=56)	H	p
Maqsadli komponent	57,22	68,52	69,36	2,707	0,258
Motivatsion komponent	58,40	63,41	70,86	1,458	0,482
Kognitiv komponent	56,55	70,74	70,00	3,934	0,140
Produktiv komponent	58,12	63,83	72,18	1,860	0,395
Dinamik komponent	59,07	65,50	61,23	0,628	0,731
Emotsional komponent	60,25	69,09	44,50	3,747	0,154
Regulyator komponent	56,98	72,76	62,41	3,782	0,151
Refleksiv komponent	58,36	76,74	43,27	8,052	0,018*
Konformlilik	58,38	63,00	63,00	1,677	0,432

*Izoh: * p<0,05.*

Refleksiv komponent ko‘rsatkichlari orasida ahamiyatli farq aniqlandi: oilalilarda 58,36, oila qurmaganlarda 76,74, ajrashganlarda 43,27 (H=8,052; p<0,05). Oila qurmagan respondentlarda kognitiv va psixologik resurslarning ko‘proq o‘z-o‘zini anglashga, shaxsiy maqsadlar va ichki kechinmalarni tahlil qilishga yo‘naltirilganligi ushbu natijani izohlaydi. Inson hayotidagi eng ko‘p strategik tanlovlar aynan oila qurishdan oldingi bosqichda amalga oshirilib, bu davr refleksiv faollikni doimiy faol holatda ushlab turishni talab qiladi.

Ajrashgan respondentlarda refleksiv komponentning nisbatan pastligi hayotiy stresslar, oilaviy tajribadan kelib chiqadigan emotsional zo‘riqish yoki qaror qabul qilishda ehtiyotkorlikning ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Oilali respondentlar esa o‘rtacha natijani namoyon etgan bo‘lib, bunda oilaviy va kasbiy mas’uliyatning uyg‘unlashishi refleksiv faoliyatni muvozanatlashtirishi ehtimoli mavjud.

Kasbiy staj omilining tashabbuskorlik komponentlariga ta’siri 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Tashabbuskorlik komponentlarining ish staji bo‘yicha tafovutlari (n=211)

Komponent	1–10 yil	11–25 yil	U	p
Maqsadli komponent	55,70	52,90	9668,0	0,443
Motivatsion komponent	50,84	67,99	1357,5	0,046*
Kognitiv komponent	68,74	43,55	9763,0	0,039*
Produktiv komponent	51,48	65,22	9845,0	0,024*
Dinamik komponent	59,14	52,48	9228,0	0,227
Emotsional komponent	67,96	61,64	9117,0	0,167
Regulyator komponent	55,63	55,32	31591,5	0,981
Refleksiv komponent	58,03	51,98	30880,0	0,646

*Izoh: * p<0,05.*

Motivatsion komponent bo‘yicha 11-25 yillik ish stajiga ega xodimlarda yuqoriroq ko‘rsatkich qayd etildi (U=1357,5; p<0,05). Faoliyatini endi boshlagan yoki 10 yilgacha stajga ega mutaxassislarda tashabbus ko‘rsatish motivatsiyasi ko‘pincha tashqi omillar - rahbarning talabi, o‘zini ko‘rsatish, martaba qilish istagi

bilan bog‘liq bo‘ladi. Tajribali xodimlarda esa ichki motivatsiya ustunlik qiladi: ular tashabbus ko‘rsatganda yoki guruh fikriga moslashganda buni ongli ravishda, ishning yakuniy muvaffaqiyati va tashkilot manfaati uchun qiladilar.

Kognitiv komponent bo‘yicha 1-10 yillik stajga ega xodimlarda yuqoriroq natija olindi (U=9763; p<0,05). Yangi xodimlar ish muhitiga moslashish jarayonida bo‘lganliklari uchun vaziyatni ko‘proq tahlil qilish, o‘rganish va bilim to‘plashga intiladilar; tajribali xodimlarda esa bu jarayon ko‘p jihatdan avtomatlashgan bo‘ladi. Ularning intellektual salohiyati kasbiy stereotiplar bilan to‘lib ulgurmagani sababli muammolarni kognitiv tahlil qilishda kreativlik yuqori bo‘ladi. 11-25 yillik stajga ega xodimlarda kognitiv komponentning nisbatan pastligi bilimsizlikni emas, balki kasbiy rigidlikni — tajribaga haddan ortiq tayanish tendensiyasini aks ettirishi mumkin.

Produktiv komponent bo‘yicha esa aksincha, 11-25 yillik stajga ega respondentlarda yuqoriroq ko‘rsatkich qayd etildi (U=9845; p<0,05). Kam stajga ega yosh mutaxassislar ko‘p tashabbus ko‘rsatsalar-da, tajriba yetishmasligi sababli ularning g‘oyalari har doim ham mahsuldor yakun topmasligi mumkin. Tajribali mutaxassislar esa qaysi tashabbus natija berishini va qaysi biri samarasiz ekanligini yaxshi anglaydilar hamda o‘z harakatlarini aniq amaliy natijaga yo‘naltiradilar.

5-jadval

Konformlik ko‘rsatkichining ish staji bo‘yicha tafovutlari (n=211)

Shkala	1–10 yil	11–25 yil	U	p
Konformlilik	105,51	85,17	2351	0,032*

*Izoh: * p<0,05.*

Konformlik yo‘nalishida ishlash muddati 1-10 yil bo‘lgan respondentlarda ko‘rsatkich yuqori (105,51), 11-25 yil bo‘lganlarda esa past (85,17) ekanligi aniqlandi (U=2351; p<0,05). Ko‘p yillik mehnat stajiga ega xodimlar tashkilot tizimini, uning yozilmagan qoidalarini yaxshi bilishadi, o‘z kasbiy maqomlariga ishonadilar va guruh bosimidan cho‘chimaydilar. Zarur bo‘lganda ko‘pchilikning fikriga qarshi chiqish yoki o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Yangi jamoaga moslashish jarayonida esa guruh me’yorlariga moslashish, atrofdagilarning fikriga quloq solish kuchli ahamiyat kasb etadi; bu holat kasbiy mavqening hali mustahkam shakllanmaganligi va ijtimoiy tasdiqqa muhtojlik bilan izohlanadi.

Hududiy kesim bo‘yicha o‘tkazilgan tahlilda Sirdaryo, Andijon va Buxoro viloyatlari respondentlari o‘rtasida tashabbuskorlik va konformlik ko‘rsatkichlarida statistik ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. Bu kasaba uyushmalari faoliyatining tashkiliy tizimi, mehnat vazifalari hamda faoliyat standartlari respublikamiz hududlari bo‘ylab o‘xshash ekanligini ko‘rsatadi. Konformlik universal ijtimoiy-psixologik xususiyat bo‘lib, ko‘proq individual omillar - tarbiya, oilaviy muhit, ta’lim tizimi bilan bog‘liq; hududiy omilga esa sezilarli darajada bog‘liq emas.

O‘zbekiston hududlarida ijtimoiy me’yorlar, kattalarga hurmat, jamoatchilik fikriga quloq solish va umumiy qadriyatlar tizimi o‘xshash bo‘lganligi sababli respondentlarning konformlik darajasi viloyatga qarab sezilarli o‘zgarmagan.

Nihoyat, tashabbuskorlik komponentlarining yosh va konformlik ko‘rsatkichi bilan korrelyatsion bog‘liqligi tahlil qilindi (6-jadval).

6-jadval

Tashabbuskorlik komponentlarining yosh va konformlik ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsion bog‘liqligi

Komponent	Yosh	Konformlilik
Maqsadli komponent	-0,068	0,233*
Motivatsion komponent	0,298*	0,147
Kognitiv komponent	-0,063	0,229*
Produktiv komponent	0,048	0,041
Dinamik komponent	0,256*	0,257**
Emotsional komponent	0,017	0,236**
Regulyator komponent	0,087	0,247*
Refleksiv komponent	-0,002	0,126

*Izoh: * $p<0,05$; ** $p<0,01$.*

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, tashabbuskorlikning maqsadli komponenti va yosh o‘rtasida bog‘liqlik aniqlanmadi ($r=-0,068$; $p>0,05$). Bu xodimning o‘z oldiga kasbiy maqsad qo‘yishi va unga erishishga intilishi yosh bilan emas, balki qiziqish, qobiliyat va ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, motivatsion komponent yosh bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi ($r=0,298$; $p<0,05$): kasbiy kamolot bilan birga tashabbusning ichki motivatsion asosi mustahkamlanadi.

Konformlik bilan bog‘liqlik jihatidan eng yuqori ko‘rsatkichlar dinamik ($r=0,257$; $p<0,01$), regulyator ($r=0,247$; $p<0,05$), emotsional ($r=0,236$; $p<0,01$), maqsadli ($r=0,233$; $p<0,05$) va kognitiv ($r=0,229$; $p<0,05$) komponentlarda qayd etildi. Ushbu natijalar kasaba uyushmalari xodimlari faoliyatining natijadorligi ko‘p jihatdan jamoaviy ishlash, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Jamoa bilan hamkorlikka moyil xodimlar tashabbusni izchil rivojlantirishga, murakkab vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlashga va guruh manfaatlarini hisobga olgan holda faol harakat qilishga ko‘proq moyil bo‘ladilar.

Regulyator komponent va konformlik o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik alohida e’tiborga loyiq: konformlikka moyil xodim guruh me’yorini o‘zining ichki tartibga solish mexanizmi uchun barqaror mo‘ljal sifatida qabul qiladi, bu esa unga o‘z xulq-atvorini tartibga solishni osonlashtiradi. Umuman olganda, tashabbuskorlikning “harakatga undovchi” uchligi - dinamik, emotsional va regulyator komponentlar - ijtimoiy-guruhiy kontekst vositasida namoyon bo‘lsa, produktiv va refleksiv komponentlar nisbatan mustaqil, individual jarayon sifatida amal qiladi.

Olingan natijalar erkak va ayol kasaba uyushmasi xodimlarining tashabbuskorlik profili bir xil psixologik konfiguratsiyaga ega emasligini ko‘rsatadi: erkaklarda maqsadga yo‘nalgan-refleksiv, ayollarda esa motivatsion-kognitiv-regulyativ model nisbatan ustunlik qiladi. Ayollarda konformlilik darajasining yuqoriligi ularning tashabbuskorlik salohiyatining pastligini emas, balki tashabbusni jamoaviy me’yorlar va hamkorlik konteksti orqali namoyon etish strategiyasini afzal ko‘rishini bildirishi mumkin. Bu natija tashabbuskorlik va konformlikni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi psixologik resurslar sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Yosh va staj omillari bo‘yicha aniqlangan qonuniyatlar tashabbuskorlikning mazmuni kasbiy hayot davomida o‘zgarib borishini ko‘rsatadi. Faoliyatning dastlabki bosqichida tashabbus ko‘proq kognitiv-emotsional zamin va tashqi motivatsiyaga tayansa, tajriba ortishi bilan u motivatsion-produktiv asosga o‘tadi. Boshqacha aytganda, yosh xodimda tashabbus “bilishga va o‘zini ko‘rsatishga” yo‘nalgan bo‘lsa, tajribali xodimda “natijaga va tashkilot manfaatiga” yo‘naladi. Konformlikning staj bilan pasayishi esa kasbiy avtonomiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini aks ettiradi.

Aniqlangan tafovutlarning amaliy ahamiyati shundaki, ular kasaba uyushmalari tizimida yagona, universal rivojlantirish dasturi barcha xodimlar uchun bir xil samarali bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Erkak xodimlarda maqsadli va refleksiv komponentlarning ustunligi ularning strategik rejalashtirish va natijalarni tahlil qilishga moyilligini aks ettirsa, ayollarda kuchli motivatsion-kognitiv zamin mavjud bo‘lsa-da, maqsadni aniq shakllantirish va natijaviy faoliyatni refleksiv baholash ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish alohida e’tibor talab qiladi. Shu tariqa, jinsga xos farqlar kamchilik emas, balki har bir guruh uchun o‘ziga xos rivojlantirish ustuvorliklarini belgilovchi diagnostik axborot sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: tanlanma uchta viloyat bilan chegaralangan; ma’lumotlar o‘z-o‘zini baholashga asoslangan so‘rovnomalar orqali to‘plangan, bu esa ijtimoiy ma’qullanish effekti ehtimolini butunlay istisno etmaydi; tadqiqot kesma (cross-sectional) xarakterga ega bo‘lgani sababli aniqlangan bog‘liqliklar sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilinishi mumkin emas.

O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlikning strukturaviy komponentlari jins omiliga ko‘ra differensiallashadi: erkaklarda maqsadli, emotsional va refleksiv, ayollarda esa motivatsion, kognitiv, produktiv, dinamik va regulyator komponentlar hamda konformlilik yuqoriroq namoyon bo‘ldi.

Ikkinchidan, yosh omili tashabbuskorlikning ikki komponentini differensiallashtiradi: kognitiv komponent 36-55 yoshdagi, emotsional komponent esa 19-35 yoshdagi xodimlarda yuqoriroq. Bu tashabbuskorlikning namoyon

bo‘lishi yosh bosqichlariga ko‘ra turli psixologik mexanizmlar bilan tavsiflanishini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, oilaviy holat bo‘yicha faqat refleksiv komponent bo‘yicha ishonchli farq aniqlandi: u oila qurmagan respondentlarda eng yuqori, ajrashganlarda esa eng past ko‘rsatkichga ega.

To‘rtinchidan, ish staji tashabbuskorlikning mazmunini o‘zgartiradi: kam stajga ega xodimlarda kognitiv, ko‘p stajga ega xodimlarda esa motivatsion va produktiv komponentlar ustunlik qiladi; konformlik darajasi esa staj ortishi bilan ishonchli pasayadi.

Beshinchidan, hududiy omil tashabbuskorlik va konformlik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi, bu kasaba uyushmalari faoliyati standartlarining respublika miqyosidagi bir xilligi bilan izohlanadi.

Oltinchidan, korrelyatsion tahlil tashabbuskorlikning dinamik, regulyator, emotsional, maqsadli va kognitiv komponentlari konformlik bilan ijobiy bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi, bu esa jamoaviy me’yorlarga moslashuvning tashabbusni cheklovchi emas, balki uni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘lishi mumkinligini asoslaydi.

Amaliy tavsiya sifatida quyidagilar taklif etiladi: kasaba uyushmalari tizimida xodimlarni rivojlantirish dasturlarini yagona shaklda emas, balki jins, yosh va kasbiy staj bo‘yicha differensiallashtirilgan modullar asosida loyihalashtirish; yosh xodimlar bilan ishlashda produktiv va maqsadli komponentlarni, tajribali xodimlar bilan ishlashda esa kognitiv moslashuvchanlik va refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga urg‘u berish; kadrlar zaxirasini shakllantirishda guruh darajasidagi tendensiyalarni individual psixodiagnostika bilan uyg‘unlashtirish.

Shu bilan birga, olingan bu natijalar jinsga asoslangan qat’iy stereotiplarni mustahkamlash uchun emas, balki individual rivojlantirish trayektoriyalarini loyihalashtirish uchun ilmiy asos sifatida qaralishi lozim: har bir xodimning psixologik profili tashabbuskorlik komponentlarining o‘ziga xos kombinatsiyasini namoyon etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrdagi O‘RQ-588-son “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi O‘RQ-376-son “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Krupnov I.A. Psixologicheskiye problemы issledovaniya aktivnosti cheloveka // Voprosы psixologii. - 1984. - №3. - S. 25-33.
4. Klauchek S.V., Delar V.V. Metodika issledovaniya konformnosti lichnosti. - M., 1998.
5. Asch S.E. Studies of independence and conformity: A minority of one against a unanimous majority // Psychological Monographs. - 1956. - Vol. 70(9). - P. 1-70.

6. Eagly A.H., Karau S.J. Role congruity theory of prejudice toward female leaders // Psychological Review. - 2002. - Vol. 109(3). - P. 573-598.
7. Frese M., Fay D. Personal initiative: An active performance concept for work in the 21st century // Research in Organizational Behavior. - 2001. - Vol. 23. - P. 133-187.
8. Rotter J.B. Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement // Psychological Monographs. - 1966. - Vol. 80(1). - P. 1-28.
9. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. - New York: W.H. Freeman, 1997.
- 604 p.
10. Platonov K.K. Struktura i razvitiye lichnosti. - M.: Nauka, 1986. - 255 s.
11. Shadrikov V.D. Psixologiya deyatelnosti cheloveka. - M.: Institut psixologii RAN, 2013. - 464 s.
12. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. - Toshkent: Universitet, 2002. - 256 b.
13. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. - Toshkent: Universitet, 1999. - 96 b.
14. Sharipov H.S. Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik omillari: PhD dissertatsiyasi.
- Toshkent, 2026. - 140 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694